



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



## INSON XARAKTERINI AKS ETTIRISHDA METAFORANING O‘RNI

### THE ROLE OF METAPHOR IN REFLECTING HUMAN CHARACTER

**Abdullayeva Roxila Yusufjon-qizi**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

E-mail: [rohilaabdullayeva559@gmail.com](mailto:rohilaabdullayeva559@gmail.com)

ORCID: 0000-0003-2051-6701

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./YBPE8943](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./YBPE8943)

**Annotatsiya:** *mazkur tezisdagi mavhum tushuncha hisoblangan inson xarakter xususiyatlarini ifodalashda inson sezgi a‘zolari orqali qabul qilishi mumkin bo‘lgan metrik mazmunli so‘zlar va til birliklaridan metaforik usulda foydalanish haqida so‘z yuritilgan. Inson xarakterini ifodalashda semantik va kognitiv metaforalarning o‘rni xususida ayrim mulohazalar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *lingvistik paradigmalar, ichki va tashqi inson, ruhiy holat ifodalovchi so‘zlar, xarakter-xususiyat ifodalovchi so‘zlar, semantik metafora, kognitiv metafora, obzarli sxema.*

**Annotation:** *This thesis discusses the metaphorical use of words and language units with metrical meaning that can be perceived by a person through his senses in expressing human character traits, which are considered abstract concepts. Some considerations are given about the role of semantic and cognitive metaphors in expressing human character.*

**Keywords:** *linguistic paradigms, inner and outer human, words expressing mental states, words expressing character traits, semantic metaphor, cognitive metaphor, descriptive scheme.*

Inson lingvistik tadqiqotlarda turli rakurslarda o‘rganilgan. Jumladan, qiyosiy va sistem-struktur tilshunoslik paradigmalarida uning yozma nutq manbalari tahlilga tortilgan bo‘lsa, antroposentrik paradigma nutq va inson butunligini ekstralingvistik omillar bilan chambarchas bog‘liq holda tadqiq qiladi. Biroq shu bilan tilshunoslikda inson tadqiqi masalasi yakunlanmaydi. Til ilmida insonga materiya, mavjudot sifatida qarash uni ikki tizimga: tashqi va ichki inson sifatida o‘rganishga asos bo‘ladi [Гепрокова, 2004: 20]. Tashqi inson tana tuzilishi va shu bilan aloqador bo‘lgan jihatlar, masalan, bo‘y va uning baland-pastligi, gavda tuzilishi: semizlik, ozg‘inlik va me‘yorda bo‘lish, go‘zallik va xunuklik singari xususiyatlarning obrazli, turli til



birliklari vositasida ifodalanishini o'rgansa, ichki inson nisbatan abstrakt, ruhiy holat, mentalitet, xarakter-xususiyati singari jihatlarni aks ettiradi. Tabiiyki, inson sezgi a'zolari orqali qabul qila oladigan jihatlari, ya'ni insonda ko'z bilan ko'rish va teri orqali bilish mumkin bo'lgan tashqi jihatlarni qabul qilish oson kechadi. Biroq insonning ichki, ya'ni ruhiy holat, xarakter-xususiyat va milliy-mental jihatlari va dunyoqarashini bevosita sezgi organlari orqali qabul qilish mumkin emas. Bunda mazkur jihatlarning abstrakt xarakterda ekanligi to'siq bo'ladi. Biroq insoniyat uzoq yillik tajribalariga suyangan holda mazkur muammoning ham yechimini topgan. Bunda eng samarali usul abstrakt tushunchalarni inson sezgi a'zolari orqali qabul qila oladigan konkret birlikka aylantirishdir. Bunda semantik va kognitiv metaforalardan foydalanish eng samarali usul hisoblanadi. D.Xudoyberganova bu jarayonni quyidagicha tushuntiradi, “insonning ko'p marta o'z tanasi va tana a'zolari orqali his qilgan og'irlik, yengillik, balandlik, pastlik, yuqorilik, joylashish, kuch, muvozanat, to'siq kabi tushunchalar keyinchalik mavhum tushunchalarni anglashda va tushuntirishda vosita bo'ladi” [Xudoyberganova, 2025: 11]. Jumladan, baland va past, tor va keng, ko'tarilish va tushish so'zlarini olib ko'radigan bo'lsak, metrik mazmunga ega bo'lgan mazkur so'zlar insonning kayfiyati, ruhiy holati va xarakterini aks ettirishda qo'llanishi mumkin.

Masalan, baland va past so'zlarini olib ko'radigan bo'lsak, baland so'zi ko'chma ma'noda qo'llanib: “*dimog'i yoki tumshug'i baland* [ O'zbek tilining izohli lug'ati, 2023: 252]. – salbiy bo'yoqdor ifoda bo'lib, takabbur tushunchasining obrazli sxemasi. Yoki *balanddan kelmoq, baland oxurdan suv ichmoq* iboralari haqida ham ayni fikrni aytish mumkin. *Baland* so'ziga *parvoz* so'zining qo'shilishi orqali yasalgan *balandparvoz* qo'shma so'zi ham insonning jamiyatga, predmet, voqea-hodisalarga munosabatida aks etuvchi xarakter xususiyatini obrazli aks ettiradi. Ta'kidlash kerakki, baland so'zi har doim ham salbiy xususiyatlarni aks ettirmaydi. Masalan, ayni so'z bilan sinonimik munosabatda bo'lgan yuksak so'zi ijobiy bo'yoqqa ega. *Baland* so'zi *ruhi baland, shashti baland, ori baland* birikmalari tarkibida ham insonga xos ijobiy xislatlarga ishora qiladi.

Past so'zi baland va u bilan birikkan so'zlar asosida shakllangan tushunchaning ziddi bo'lib, aksar insonga xos salbiy jihatlarni aks ettirish uchun foydalaniladi. Ahamiyatli tomoni, past so'zi yakka holda qo'llanib ham inson xarakteriga ishora qilishi mumkin. Bunda so'z faqat bir xarakter xususiyati bilan bog'lanmaydi. Insonga nisbatan qo'llangan past so'zi ayni vaqtda uning predmet, voqea-hodisalar, jumladan: mablag'ga, taomga bo'lgan munosabatini aks ettirishi mumkin. Shuningdek, kompleks insonning bir necha salbiy jihatlarni umumlashtirib ifodalashi mumkin:



*pastlik qilmoq, past ketmoq, pastkash bo'lmoq.* U tuban so'zi va u bilan aloqador tushunchalar bilan sinonimik munosabatga kirishadi.

Tabiiyki, mazkur so'zlar insonning tashqi xususiyatlarini ifodalab, uning bo'yiga nisbatan ham qo'llanadi. Shuningdek, baland va past so'zlari juftlashib, insondan tashqari predmet, voqea-hosidalarga ham ishora qilish, umumlashtirish imkoniyatiga ega. Jumladan: *hayotning past-u balandi*, ya'ni turmush, hayot davomida sodir bo'lgan, turfa hodisalar. Gapning *past-u balandi* – turfa gap-so'z.

Balandlik va pastlik tushunchalari insonga ishora qilishi haqida so'z yuritganda, ko'tarilmoq va tushoq fe'llari ham mazkur jarayonda ma'lum rol o'ynashini ta'kidlab o'tish joiz. So'z fe'l so'z turkumiga mansub bo'lganligi bois, dinamik, o'zgaruvchan jarayonlarga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, *ruhi ko'tarilmoq – ruhi tushmoq, kayfiyati tushmoq – kayfiyati ko'tarilmoq.* Tilda balandlik va pastlik tushunchasini ifodalashda bevosita yoki bilvosita qo'llanuvchi ko'plab birliklar bor. Mazkur birliklar ham insonning ichki, abskark jihatlarini metaforik tarzda aks ettirishda muhim ahamiyatga ega.

Insonning ruhiy holati va xarakter-xususiyatini aks ettirishda o'lchamni ifodalovchi keng va tor so'zlaridan ham unumli foydalaniladi: *fe'li keng – fe'li tor, ichi keng – ichi tor.* Xuddi baland va past so'zlari inson sezgi a'zolari orqali bevosita qabul qilinib, inson tajribasida o'tgan mazkur so'zlar keyinchalik borliqdagi o'zga mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, izohlash va sifatlash uchun ham qo'llanadi. Jumladan, *keng ma'no – tor ma'no, keng doira – tor doira, keng muhokamalar, keng jamoatchilik* kabi. “Jamiyat tarixi – so'z tarixi, so'z tarixi esa jamiyat tarixi” [N.Mahmudov, 1995: 37] ekanligini inobatga olsak, mazkur birliklarning har birida milliy lisoniy tajriba aks etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zida mazmuniy ko'chim xususiyatini aks ettiruvchi kognitiv metaforalar dastavval insonning bevosita kuzatuvlari oqibatida shakllangan semantik metaforalar asosida paydo bo'ladi. Bevosita kuzatishda berilgan sifat tushunarli va aniq bo'lganligi bois, u bir va hatto bir necha mavhum tushunchalarni oydinlashtirish uchun metaforik tarzda qo'llanadi. Mazkur jarayon tinglovchi miyasida nutqning samarali tushunilishiga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar:

1. Гергокова Ж.Х. Фразеологическая концептуализация понятия «человек»: На материале карачаево-балкарского, английского и русского языков: Авторефер.дисс. ... канд.филол.наук. – Нальчик, 2004. – 20 с.
2. Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Гофур Гулом нашриёти-матбаа ижодий уйи, 2012. – 145 б.



3. Xudoyberganova D. O‘zbek tili metaforalarining antroposentrik lug‘ati. – Toshkent: Ilm-fan va innovatsiya nashriyoti, 2025. – 178 b.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 962 b.
27. Abdug‘Afurovna Q. S. “YURISH” SEMALI LUG‘AVIY BIRLIKLARNING GURUHLANISHIDA DARAJALANISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B2. – C. 509-511.
28. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=w6qGLxUAAA&citation\\_for\\_view=w6qGLxUAAA:WF5omc3nYN0C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=w6qGLxUAAA&citation_for_view=w6qGLxUAAA:WF5omc3nYN0C)
29. KENJAYEVA D. Boburnoma” da etimologiyaning o ‘ziga xosligi Uniqueness of etymology in “Boburnoma //ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O ‘RNI. – C. 301. Umurzakova M. The age factor in the formation of a linguistic personality
30. Komilova Gavharoy Ro‘zimovna. (2025). Proverbs as Figurative Expressions of Values (Based on Examples from Uzbek Proverbs). *American Journal of Philological Sciences*, 5(05), 260–263. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume05Issue05-70>
31. **Komilova, G. R. (2022).** *Ўзбек мақолларидаги аксиологик моделлар таҳлили*. PDF maqola. Tashkent, Uzbekistan.
32. Rashidova N. АРАБСКИЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ //Conferences. – 2025. – Т. 1. – №. 1.
33. Sabohat Qahharova. (2024). SEMANTIC FEATURES AND THESAURUS OF LEXEMES OF “ODIMLAMOQ”. *International Scientific and Current Research Conferences*, 1(01), 51–54. Retrieved from <https://orientalpublication.com/index.php/isrc/article/view/1599>
34. I Orazova [FRAZEMALAR KOGNITIV SEMANTIKANING O ‘RGANISH OBYEKTI SIFATIDA](#)
35. Shamsiyeva, Manzura. “Formation Of Forms Of Communication” . *Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics* (2019): 87.
36. Xolmanova, Z. T., Shamsiyeva M.B. 2022. “Bolada bilingvizmni shakllantirishda ona tilining ahamiyati”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 2 (1): 6-13.
37. Z Xolmonova [BABÜRNÂMEDEKİ BAZIKELİMELERİN TARİH? VE ETİMOLOJİK TAHLİLİ.](#) - *Journal of Social Sciences/Sosyal Bilimler Dergisi ...*, 2015
38. X M. [Роль парафразов в «Кутадгу билиг»](#) Преподавание языке и литературы, С.72-73
39. B Abdushukurov, L Aralova Turkish assimilation words in Russian language - *Asian Journal of Multidimensional Research*, 2021